

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZILIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 242
"3" 07 2024 y.



“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor
Q.Inoyatov

DINAMIK MAKROIQTISODIYOT
FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI
(SILLABUS)
(sirtqi)

Bilim sohalari:	300 000 -	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohalari:	310 000 -	Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishlari:	60310100 -	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Namangan-2024

Fan/modul' kodi DYNMAC4	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	Kreditlar 4		
Fan/modul' turi Tanlov fan	Ta'lim turi O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5		
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil Ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1.		Dinamik makroiqtisodiyot	16 (8 m / 8 a)	104	120
2. I. Fanning mazmuni					
<p>Fanning maqsadi – talabalarning modellar yordamida makroiqtisodiy jarayonlarni dinamik tahlil qilish bo'yicha bilimlarini kengaytirish, modellashtirish, iqtisodiy o'sish, pul-kredit va soliq-byudjet siyosatini muvofiqlashtirish asosida barqaror rivojlanishga erishish profiliga mos bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, sanoat va kompaniyalarni qanday baholashni bilish, ma'lum bir zaxirani tahlil qilish bilan shug'ullanish, shuningdek talabalar sarmoyalarni tahlil qilish tamoyillari orqali va bozor talabalariga pulni boshqarish va daromadni maksimal darajada oshirish uchun zarur bilimlarni shakllantirish orqali uning investision jarayonlardagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.</p> <p>Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - dinamik makroiqtisodiyot fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi tavsia etiladi; - dinamik makroiqtisodiyot nazariya asoslari bo'limiga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron - didaktik texnologiyalaridan foydalanish; - dinamik makroiqtisodiyot fani mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulot aqliy xujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalardan foydalanish; - dinamik makroiqtisodiyot tuzilishini o'rganish va ularning asosiy parametrlarini va ularning elementlarini aniqlash mavzularida o'tkaziladigan tajriba mashg'ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi. <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>*1-mavzu: Dinamik makroiqtisodiy tahlil faniga kirish Makroiqtisodiy tahlil, Makroiqtisodiy tahlilning vositalari, Turli davrlar uchun ma'lumotlarning solishtirma tahlili, Mamlakatlararo yoki o'zaro tahlil.</p>					

Mamlakatlararo tahlilni amalga oshirish negizida mamlakatlardagi iqtisodiy holatni taqqoslash.

2-mavzu: Dinamik makroiqtisodiy tahlilda real sektor

Iqtisodiyotning real sektori tushunchasi, Real sektorning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati, Real sektor va iqtisodiy o'sish. Real agregatlar, Nominal agregatlar, Iste'mol narxlar indeksi.

***3-mavzu: Real iqtisodiy davrlar nazariyasi**

Real iqtisodiy davrlar nazariyasi, "Real yalpi talab - real yalpi taklif" modelidagi davriy tebranishlar, Mehnat taklifidagi vaqtincha almashtirish, Soliq-byudjet siyosatidagi o'zgarishlar, Ishlab chiqarish texnologiyasida keskin o'zgarishlar

4-mavzu: Jamg'arish va iste'mol

Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish, Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari, Iste'molga (ARS) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS), Iste'molga (MRS) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik, O'zbekiston Respublikasida ise'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari.

***5-mavzu: Fiskal hisoblar va ularning tahlili**

Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat, Yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori, Soliq multiplikatsiyasi mexanizmi, Soliq multiplikatori, Balanslashgan budjet multiplikatori.

6-mavzu: Investitsiya

Investitsiyalarning neoklassik modeli, Bir davrli model va Ko'p davrli model, Kapitalning istalgan zaxiralarga moslashish xarajatlarini hisobga olish modeli, Soliq siyosatining firmalarning investision qarorlariga ta'siri. Tobin nazariyasi, Investitsion loyihalarni kapitalning chegaraviy samaradorligi bo'yicha saralash va investitsiya talabining funksiyasini aniqlash.

***7-mavzu: Pul va inflyatsiya**

Pulning miqdoriy nazariyasi. Fisher samarasi. Senoraj. Fridman modeli. Inflyatsion xarajatlar. Klassik dixotomiya. Inflyatsiya darajasi. Pulning funksiyalari, ularning ko'rinishlari Pul agregatlari. Likvidlilik. Pulning miqdoriy tenglamasi. Inflyatsion soliq. Monetar siyosatda inflyatsiyaga moyillik. Kidland - Prescott modeli.

8-mavzu: Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili

Pul kredit sektorining tarkibi, Pul vositalarining oqimi, Tahliliy hisobot, Moliyaviy tashkilotlar, Davlatning to'lov vositalarini yaratuvchi moliyaviy muassasalar, Pul yaratmaydigan moliyaviy muassasalar, Pul-kredit nazorat

qiluvchi va pul depozit banklari, Zahira pullari, Xorijiy valyuta zahiralari tahlili, Pul massasi, davlat sektorining iqtisodiy tahlili.

***9-mavzu: Noaniqlik va xavf sharoitida iste'molchi tanlovi**

Iste'molchi tanlovi va uning xususiyatlari, Tovar va xizmatlarning zamonaviy bozorlari, Iste'molchi tanlovi va iste'molchi talabining xususiyatlari, Akselerator multiplikatori, Rag'batlantiruvchi pul-kredit siyosati sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni, Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni.

***10-mavzu: Keyns modellari va Fillips egri chizig'i**

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi, Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar, Modelni tuzishdagi asosiy shartlar, Sof eksport funksiyasi, Importga chegaraviy moyillik, Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi, Tovar moddiy zahiralarning rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi, Filippsi egri chizig'i.

***11-mavzu: Robert Solouning o'sish modeli**

Iqtisodiy o'sish: ba'zi muhim faktlar. R.Solou modeli. Iqtisodiy o'sish manbalarini hisoblash. Solou modelining kamchiliklari va ularni bartaraf etish usullari. Kapitalning ortib boruvchi intensivligi. Aktivlarning ortib borishi. Texnologik o'sish sur'ati. Iste'molning o'sish sur'ati. Oltin qoidaga mos keladigan barqaror holatga o'tish.

***12-mavzu: Ochiq iqtisodiyot**

Ochiq iqtisodiyotdagi milliy daromad. To'lov balansi. Nominal ayirboshlash kursi. Real ayirboshlash kursi. Xarid qobiliyati pariteti. Mandell - Fleming modeli. Ayirboshlash ko'rsatkichlarining turlari. Mandell - Fleming modelida iqtisodiy siyosat multiplikatorlari. Mandel - Fleming modelidagi " Daromad-valyuta kursi" koordinatalarida umumiy muvozanat.

***13-mavzu: O'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot tahlili**

Qisqa muddatli yalpi taklif modellari. O'zgarmas (qattiq) ish haqi modeli. Nomukammal ma'lumotlar modeli. O'zgarmas (qattiq) narx modeli. Real ish haqining davriy tebranishlari. Fillips egri chizig'i va yalpi taklif. Kaplin-Spalber modeli.

“Dinamik makroiqtisodiyot” fanidan ma’ruza mashg’ulotlarning mavzulari va soatlar bo’yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Dinamik makroiqtisodiy tahlilda real sektor	2

2	Jamg'arish va iste'mol	2
3	Investitsiya	2
4	Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili	2
JAMI		8

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dinamik makroiqtisodiy tahlil faniga kirish
2. Dinamik makroiqtisodiy tahlilda real sektor
3. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi
4. Jamg'arish va iste'mol
5. Fiskal hisoblar va ularning tahlili
6. Investitsiya
7. Pul va inflyatsiya
8. Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili
9. Noaniqlik va xavf sharoitida iste'molchi tanlovi
10. Keyns modellari va Fillips egri chizig'i
11. Robert Solouning o'sish modeli
12. Ochiq iqtisodiyot
13. O'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot tahlili

“Dinamik makroiqtisodiyot” fanidan amaliy mashg'ulotlarning mavzulari va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Dinamik makroiqtisodiy tahlilda real sektor	2
2	Jamg'arish va iste'mol	2
3	Investitsiya	2
4	Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili	2
JAMI		8

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogic va axborot texnologiyalardan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil topshiriq uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

Mustaqil topshiriqning turli shakllari mavjud bo'lib, unda talaba o'qituvchi

rahbarligida fan bo'yicha yangi bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalga oshira oladi.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin: darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zgartirish; avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi, nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash; maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; yangi texnikalarni, apparaturalarni, imtalab jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;

talabaning ilmiy tekshirish ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish; faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (xizmat o'yinlari, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.) masofaviy (distantion) ta'lim.

o'quv qo'llanmalari yordamida fan mavzularini o'rganish.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Makroiqtisodiy tahlil mohiyati
2. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi
3. Jamg'arish va iste'mol
4. Fiskal hisoblar va ularning tahlili
5. Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar

1. Fiskal hisoblar va ularning tahlili
2. Pul-kredit sektorining iqtisodiy tahlili
3. Noaniqlik va xavf sharoitida iste'molchi tanlovi
4. Robert Solouning o'sish modeli
5. O'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot tahlili

Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrning boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.

3.

V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Kapital investisiya tahlili hamda moliya tizimi haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- Moliya tizimining asosiy funksiyalarini, aktivlar va bozorlar tasnifini bilish, qimmatli qog'ozlarning asosiy turlarini, valyutalarni, shartnomalarni, tovarlarni va real aktivlarni tavsiflash, moliyaviy vositachilar va ular ko'rsatadigan xizmatlarning turlarini bilish, investorning aktivga qo'yishi mumkin bo'lgan pozitsiyalarni taqqoslash ko'nikmalariga *ega bo'lishi*;
- birlamchi va ikkilamchi bozorlarni tavsiflash va ikkilamchi bozorlarni qanday qo'llab-quvvatlash ko'nikmalariga ega bo'lish, qimmatli qog'ozlar, kontraktlar va valyutalarning kotirovkaga asoslangan bozorlarda qanday sotilishini bilish, bozorni tartibga solish maqsadlariga *ega bo'lishi kerak*.

4.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni yechish;
- so'rov o'tkazish.

5.

VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishini topshirish. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.

Diqqat! Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida

platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

Talabalar bilimni baholash mezonlari

Raqamli iqtisodiyot fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.

1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab oladi. Talabani nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.

$$OB=N.T(1,2)+A.M+MT/2$$

Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari;

A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.

Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60% holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

$$OB \geq 60\%$$

Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.

Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60% dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi. $YaN \geq 60\%$.

Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oraliq'da baholanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rtacha 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat 2-5 baho oraliq'da baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqarsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.

6. Asosiy adabiyotlar

1. Georgios Alogoskoufis. Dynamic Macroeconomics. Massachusetts Technological University. USA: 2019. ISBN: 9780262043014

2. Воронин А.Ю. Макроэкономика – 1: учебное пособие / А.Ю.Воронин, И.А.Киришин. – Москва: ИНФРА-М, 2020. – 110 с. – (Высшее образование: Бакалавриат) (Это учебное пособие доступно в

формате PDF в АРМ университета)

3. Цыганова М.С. Моделирование экономических процессов и систем: учебное пособие. – Москва : Проспект, 2021 с. (Это учебное пособие доступно в формате PDF в АРМ университета).

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Romer D., Advanced Macroeconomics. 4th ed. — McGraw Hill Book Company: London, 2012.

5. Дэвид Ромер. Высшая макроэкономика: учебник /пер. с англ. под науч. ред. В. М. Полтеровича. - 2-е изд. - Москва : Издательский дом Высш. шк. экономики, 2015. – 854 с

6. Abel A.B., Bernanke B.S., Croushore D. Macroeconomics. 8 th edition. USA: Amazon, 2013

7. Roger A. Arnold. Economics 13th Edition, Kindle Edition. (2018). ISBN-13: 978-1337617383

8. Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Флинн Ш.М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник: Пер. с англ. 21-е изд. М.: ИНФРА-М, 2019. - 1152. с.

Axborot manbaalari

9. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.

10. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

11. www.tradingeconomics.com – ekonomicheskkiye pokazateli

4. <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

5. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

6. www.mineconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi.

12.7. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

7. **Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.**

8. Fan/modul' uchun ma'sullar:

O.Aripov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri.

O. Boyturayev – NamMQI, Iqtisodiyot kafedrasini katta o'qituvchisi

9. Taqrizchilar:

I.Q.Sirojiddinov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti, i.f.n.

I.Soliev – NamDU "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri dotsenti, i.f.n.